

O'ZBEK XALQ DOSTONLARIDA HAYVONLAR OBRAZINING BADIY AHAMIYATI

Ashuraliyeva Laylo

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti 9.25-guruh talabasi.

Ergasheva Rayxon O'tkirovna

Ilmiy rahbar. TISU o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18147358>

Annotatsiya. O'zbek xalq og'zaki ijodining yirik janri bo'lgan dostonlarda hayvonlar obrazi muhim badiiy va g'oyaviy ahamiyat kasb etadi. Xalqning dunyoqarashlari aynan hayvonlar obrazi orqali ifodalanadi. Shu sababli, hayvonlar nafaqat voqealar fonida, balki doston syujeti va qahramon xarakterini ochishda faol ishtirok etadi. Hayvonlar qahramonga yo'l ko'rsatadi, uni xavfdan ogohlantiradi va g'alabaga yetaklaydi. Bu esa hayvonlarning oddiy mavjudot emas, balki ilohiy va ramziy kuch egasi sifatida tasvirlanishiga asos bo'ladi.

Maqolada "Alpomish", "Go'rog'li", "Xon Dalli", "Asil va Karam", "Shahriyor" kabi dostonlarda hayvonlarning o'rni beqiyos. Qahramonlar bilan yelkama yelka sinovlarni yengib o'tishi, o'z egasiga har doim sodiqligi, qiyin vaziyatlarda ham doimo yonida bo'lishi yoritiladi.

Annotation. In epics, which are major genres of Uzbek folk oral literature, animal images play an important artistic and ideological role. The worldview of the people is often expressed precisely through animal characters. Therefore, animals are not only part of the background of events, but also actively participate in revealing the plot of the epic and the character of the heroes. Animals guide the hero, warn him of dangers, and lead him to victory.

This serves as a basis for portraying animals not as ordinary creatures, but as possessors of divine and symbolic power. The article highlights the invaluable role of animals in such epics as "Alpomish," "Gorogly," "Khan Dalli," "Asil and Karam," and "Shahriyor." Their overcoming trials side by side with the heroes, their constant loyalty to their masters, and their presence in difficult situations are thoroughly discussed.

Аннотация. Ўзбек халқ оғзаки ижодининг йирик жанри бўлган дostonларда ҳайвонлар образи муҳим бadiий ва гоyaviй аҳамият касб этади. Халқнинг дунёқараишлари айнан ҳайвонлар образи орқали ифodаланadi. Шу сабабли, ҳайвонлар нафақат воқeалар фонида, балки дoston сюжети ва қаҳрамон характери очилишида фаол иштирок этади.

Ҳайвонлар қаҳрамонга йўл кўрсатади, уни хавфдан огоҳлантиради ва галабага етаклайди. Бу эса ҳайвонларнинг oddий мавжудот эмас, балки илоҳий ва рамзий куч эгаси сифатида тасвирланишига асос бўлади. Мақолада «Алпомиш», «Гўрўғли», «Хон Далли», «Асиль ва Карам», «Шаҳриёр» каби дostonларда ҳайвонларнинг ўрни беқиёс экани ёритилади. Қаҳрамонлар билан елкама-елка синовларни енгиб ўтиши, ўз эгасига доимо содиқлиги, қийин вазиятларда ҳам ҳар доим ёнида бўлиши атрофлича таҳлил қилинади.

Tayanch so'zlar: doston, obrazlar, syujet, voqealar foni, ilohiy va ramziy kuch, homiy ruh, psixologik parallellik, xalq pedagogikasi.

Kirish.

O'zbek xalq dostonlari asrlar davomida og'izdan og'izga o'tib, yanada sayqallanib kelayotgan janr hisoblanadi. Dostonlarda ishtirok etayotgan har bir narsa, qahramonlardan tortib hayvonlar va kichkina detallargacha e'tibor qaratiladi, chunki har bir narsa dostonni yanada kuchli va ta'sirli qiladi.

Dostonlardagi obrazlar orasida hayvonlar obrazi alohida e'tiborni tortadi.

U xalq orasida qahramonlarning o'z maqsadiga erishishiga yordam beruvchi vosita sifatida gavdalanadi. Bu kabi fikrlar esa hayvonlar obrazining folklordagi o'rni beqiyosligini anglatadi. Hayvonlar obrazining folklordagi o'rni; voqealar ketma- ketligining tuzilishi, qahramon hayotida yangi sahifa ochilishiga zamin yaratadi va qahramonlarning sinovlarni mardonavor yengib o'tishiga ko'mak beradi.

Asosiy qism.

Hayvonlar obrazi folklorda muqaddas kuch, homiy ruh, qahramonning ajdodi yoki himoyachisi sifatida tasvirlanadi. Dostonlarda hayvonlar obrazi psixologik parallellik asosida talqin qilinadi, ya'ni hayvon va inson xarakteri o'xshash holda beriladi. Qahramon va qahramonga yordamchi bo'lgan hayvonlar o'z maqsadlari yo'lida bir tan-u bir jon bo'lib harakat qiladi. "Alpomish" dostonida Boychibor, Alpomishning alp bo'lishi va Barchinoyga erishish yo'lida asosiy yordamchi. Barchinoy qo'ygan 3 shartdan biri otchopirish edi. Boychibor bu shartda qalmoq va podsho otlaridan o'zib ketadi, vaholanki tuyoqlariga miq qoqilgan bo'lsa ham.

"Go'ro'g'li" turkumidagi dostonlarda G'iro't har doim Go'ro'g'liga sodiq bo'ladi, homiy eranlar tomonidan Go'ro'g'li va G'iro'tning tarbiyalanishi dostonlarda psixologik parallellikni namoyon qiladi. G'iro'tning janglarda mardonavor kurashlari devlar va turli maxluqlar orasida ham Go'ro'g'lini yolg'iz qoldirmagani, turli xil ko'ngilsiz voqealarni oldindan sezishi va o'z egasini tishlab ogohlantirishi. "Xon Dalli" dostonida G'iro't Xasanni doimo qo'llab quvvatlagani, jang maydonida qutqarib qolishi va Dallini va xalqni o'zining turli o'yinlari bilan hayron qoldirishi. "Shahriyor" dostonida Jahongir otning yo'l ko'rsatib borishi, qahramonga to'g'ri maslahatlar berishi va Jahongir otning tuyoqlari ostidagi tuproq Gulsoraning ko'zlariga davo bo'lishi ham dostonlardagi ot obrazining badiiy estetik qiymatini yanada oshiradi.

Xususan, dostonlarda qushlar obrazi erkinlik va ilohiy xabar yetkazuvchi sifatida talqin qilinadi. "Malikayi Ayyor" dostonida Go'ro'g'lining ovga chiqishi va tarlon qushining Malika saroyiga borib qo'nishi ham qahramonning hayotida o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Qush vositasi orqali qahramon o'z oldiga yangi maqsad qo'yadi va unga erishish yo'lida tinimsiz harakat qiladi. "Asil va Karam" dostonida qush qahramonlar hayotini tubdan o'zgartiradi.

Muhammadning qush uchirishi va qush uchib arman qizi Nargiz bog'iga qo'nishi, ikki yoshning qalbida muhabbat kurtaklari ochilishiga sabab bo'ladi.

Bir-biriga erishish yo'lida ancha sinovlarni bosib o'tadi va oxiri ular kabutarlarga aylanib uchib ketishadi. Qush obrazi xabar beruvchi vazifasini ham bajaradi. "Go'ro'g'li" turkumiga mansub "Xon Dalli" dostonida ham Xasanning yarador bo'lgani haqida Go'ro'g'liga turnalar xabar berishadi.

Xulosa.

O'zbek xalq dostonlarida hayvonlar obrazi axloqiy va tarbiyaviy vazifani bajaradi. Ular orqali xalq yoshlarga sadoqat, jasorat, mehnatsevarlik, vafodorlik kabi fazilatlarni singdiradi.

Shu bois hayvonlar obrazi xalq pedagogikasining muhim unsurlaridan biri hisoblanadi.

Dostonlarda hayvonlar obrazi mifologik tafakkur va ramziy ma'nolar bilan uzviy bog'langan. Ular qahramon xarakterini ochish, syujetni rivojlantirish hamda xalqning qadimiy dunyoqarashi va axloqiy qadriyatlarini ifodalashda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Alpomish dostoni. Toshkent. Fan. 2003.
2. Go'ro'g'li dostoni.

3. Mirzayev T. O'zbek folklori Toshkent. O'qituvchi. 1990.
4. "Shahriyor"dostoni. O'zbek xalq dostonlari to'plami.
5. E.Ergasheva. Sirojiddin Sayyid's skill in using the art of talmeh
6. R.Ergasheva. The Metapoetic Interpretation Of Sirojiddin Sayyid's Creative Work